

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

Siddiqova Dilrabo Aslamovna

*Navoiy viloyati Nurota tuman 19-umumiy òrta tàlim maktab amaliyotchi
psixologi*

Annotasiya: mazkur maqolada kasblarni tuzilishi va kasb tanlashdagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, kasbni sevish, kasbga jalg etish, kasb tanlash muammolari, ijobjiy yechim, ota-onan ko'magi, pedagogik-psixologik tavsiyalar, maktab bitiruvchisi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ertangi yosh avlodni har tomonlama tarbiyalab, kelajakda komil insonlar bo'lib yetishishlarini ko'zda tutadi.Mustaqilligimizga erishgan yillarimizdan oq yurtimiz ertasi bo'lган yoshlarga katta e'tibor qaratila boshlandi va ularga birqator keng imkoniyatlar yaratildi. Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyevning yoshlarnning kasb hunar egallashi borasida bildirgan quydagi fikrlari ayniqsa etiborga molikdir:

- Mahallalarda 1000 dan ziyod kasb-hunarga o'qitish markazlari tashkil etiladi;

-Kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlarida 1 million so'mgacha subsidiya beriladi.Buning uchun budgetdan 100 milliard so'm ajratiladi;

-O'quv kurslarini tamomlab,o'z biznesini boshlamoqchi bo'lган fuqarolarga uskunalar xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar beriladi;

Shuningdek,umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari ta'lim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o'rgatish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta'limini davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga sharsharoitlar yaratish bo'yicha chora tadbirlar tashkil

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qilindi.Ushbu chora tadbirlarga muvofiq umumiy o'rta maktab,akademik litsey bitiruvchilarida aniq bir maqsadli kasbiy motivlarni shakllantirish,kasbga yo'naltirish bo'yicha aniq metodikalar o'tkazish va qaysi kasbga qobiliyatları borligini aniqlash zarur. Chunki hozirgi kunda ko'plab holatlarda farzandlar ota-oná majburiyatlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashga majbur bo'lib kelmoqda. Bilamizki,ota-onalar o'zlari erisha olmagan kasbini farzandlarida ko'rishni hohlaydi.Bu esa, ertangi kunda farzandlarining majburan tanlagan sohalarida na yutuqqa erisha olishlarini bildiradi na kelajagiga foyda berishiga ishonish mumkin.Bunda ,albatta, jamiyatimizda psixologik bilimlarning yetishmasligini takror va takror ko'ramiz.Shuning uchun ham har biro ota-oná farzandlarini qiziqish va qobiliyatlariga e'tiborli bo'lishlari kerak.Farzandlarining kelajagiga bee'tibor bolmasliklari zarur va shart deb hisoblayman.Qiziqish-insonlarning dunyoqarashi,e'tiqodlari,idealari,ya'ni uning oliy maqsadlari,orzu niyatlari,orzu umidlari bilan bevosita muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Kasb tanlash bu - inson hayotida muhim qarorni qabul qilishda ilk qadam hisoblanadi. Inson umri davomida o'zi tanlagan kasbdan mamnun bo'lib yashashi, anashu muhim qarorni qabul qilishiga bog'liqdir. Maktabgacha va mакtab ta'limi vazirligi buyrug'i bilan o'quvchilarga o'rgatiladigan bitta kasb-hunar turi va ular amaliyoti yo'lga qo'yiladigan 208 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasi ro'yxati shakllantirildi. Tanlab olingan maktablarda o'quvchilar qiziqishidan kelib chiqib, quyidagi 3 yo'nalishdan biri bo'yicha kasb-hunar o'rgatiladi: - ishchi kasblar (hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatidan kelib chiqib, tadbirkor va hunarmandlar jalb qilingan holda 64 turda); - tadbirkorlik (21 turdag'i ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha); - zamonaviy kasblar (10 dan ortiq axborot texnologiyalari va kreativ industriya yo'nalishi bo'yicha). 2023-2024 o'quv yilida 17 ming nafardan ortiq o'quvchiga kasb-hunar o'rgatish rejalashtirilgan1 . Bundan ko'rinib turibdiki mamlakatimizda bitiruvchilarini kasbhunarga yo'naltirish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Biroq, hali maktablarda o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan masalalar ko'pdir.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Bitiruvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasb tanlashda muammolarga duch kelinishi asosiy masalalardan biridir. Bu muammolarni ijobiy yechimini topish uchun ta'lim muassasalarida maktab bitiruvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, kasblar olami bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bitiruvchilar kasblar haqida qancha ko'p ma'lumotga ega bo'lishsa o'quvchilarni kasb tanlash uchun imkoniyatlari shuncha katta hisoblanadi. Yuqori sinf o'quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlar, iste'dodlari asosida tanlagan kasblariga to'g'ri yo'naltirish o'spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. Bitiruvchirlarga o'qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari kerak. Maktabni bitirgunicha hamma o'quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi deya olmaymiz. Sababi maktab bitiruvchilarida kasblarga har xil munosbatlar hosil bo'lishi va maktabda o'qish davrida kasb tanlash bo'yicha turli xil niyatlar paydo bo'lishidir.

Yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq manfaatlari nuqtai nazardan mehnat reurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va me'yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir.

Bundan tashqari boshqa motivlar ham masalan, o'quvchining biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to'g'risidagi ma'lumoti ham sabab bo'lishi mumkin. Maktab bitiruvchilarida kasblar haqida yaqol tasavvur bo'lmasligi sababli ular kasb tanlashda ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Bunga asosiy omil qilib o'z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasligi va u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mumkinligini bilmasligidir. Anashunday muammolarni oldini olish va bartaraf etish uchun imkoniyatlar mavjud.

Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkonoyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan xabrdor bo'lishi zarur. Kasbga yonaltirishda har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlarini, shuningdek, jamiyatning qaysidir kasbga nisbatan ehtiyojini ta'minlash zarurligini inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to'g'ri yonaltirish shaxsning hayotida to'g'ri yo'lni topishiga imkon beradi. O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o'zlarining qobiliyatlariga yarasha to'ri tanlashlariga erishish uchun mакtab o'qituivchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perceptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatları yuqori bo'lishi, kasblar bilan bog'liq fan to'garaklarining faoliyatini rivojlantirish, maktablarda kasb - hunar to'risidagi ma'ruzalarini tashkillash o'z natijasini beradi, shuningdek, maktablarda " Kasbim faxrim", "Kasbim kelajagim dasturi" kabi mavzularda seminar - trening mashg'ulotlari, suhbatlar va munozaralar o'tkazilishi, uchrashuvlar, kasb - hunarga oid ko'rgazmalar tashkil etilishi, o'quvchilarda kasb tanlashga qiziqish hamda ishtiyoqini uyg'otadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishlari mакtab rahbariyati bilan birgalikda maktabning amaliy psixologi, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar va o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Kasbga yo'naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim o'rин tutadi. Bular orasida xalq xo'jaligini rivojlantirish va kad muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yo'naltirish jihatlari bilan o'zaro bog'liq tarzda talabalarning mustaqil mashg'ulotlarida ko'rib chiqishi tavsiya etiladi. Hozirgi fantexnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo'lган maktabning roli har qachongidan ko'ra o'sdi. SHu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta`lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir. 10 Kasbni to`g`ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko`p jihatdan kasbning qanchalik to`g`ri tanlanishiga bog`liq. Kasbni to`g`ri tanlash har bir maktab o`quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo`lishi uchun uning sog`lig`ini, o`zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko`ra ko`proq qaror topadi va namoyon bo`ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo`lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo`r qiziqish bilan qarasa, o`z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatları mehnatda takomillashib borsa, o`shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo`ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko`p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g`oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug`ullanayotgan ishini yaxshi ko`rsa, bundan u xursand bo`ladi, qoniqish hosil qiladi, zo`r tashabbus ko`rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi. Maktab o`quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo`lishi va ayni vaqtida jamiyat manfaatlariga mos bo`lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo`lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma`lumotli bo`lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma`lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas.

Xulosa o'mida shuni aytish joizki, respublikamizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining zamirida davlatimizni yetakchi demokratik davlatlar ko`rsatkichiga chiqarish bosh maqsadi yotibdi. O'quvchilarda o'zlarining qiziqishlari asosida kasb tanlashga yo'llash bugunning dolzarb masalalaridir. Mehnat ta'limi darslari va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni kasbga yo'llash imkoniyatlari chegaralanganligi sababli ularni to'garak faoliyatida amalga oshirish mumkin. To'garaklarda o'quvchilarni bajaradigan faoliyatidan kelib chiqib kasblarga yo'naltirish imkoniyatlari kattadir.